

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

**Andijon davlat pedagogika insituti
Tabiiy fanlar Fakulteti Kimyo yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Tohirjonova Latofatoy Jahongir qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog‘cha yoshidagi bolalarning, maktab davrigacha bo‘lgan faoliyatlarini haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Ontogenez, predmetli o‘yinlar, sujetli-rolli o‘yinlar, korreksion, individual, realizatsiya.

Аннотация: В данной статье представлена информация о дошкольной образовательной деятельности детей детского сада.

Ключевые слова: Онтогенез, игры с предметами, ролевые игры с предметами, коррекция, индивидуальность, реализация.

Abstract: This article provides information about the activities of children of kindergarden age before school.

Key words: Ontogeny, games with subjects, role-playing games with subjects, correction, individual, realization.

Kirish: Barkamol shaxsning tarbiyalashda, Bolani dunyoga kelaganidan boshlab to voyaga yetguniga qadar bo‘lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bolaning psixik taraqqiyoti haqidagi bilimlarni esa psixologik bilimlarning maxsus sohasi- Bolalar psixologiyasi fani o‘rganadi.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog‘i bo‘lib, bolaning tug‘ilganidan to yetuklik davrida psixik taraqqiyotini, rivojlanishining turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalarda bog‘cha davri yoki maktabgacha yosh davr deb ataladi. Ta’lim – tarbiya jarayonida asosan didaktik o‘yinlar, turli xil amaliy va tasviriy faoliyat shakllarida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalar bilan ananaviy maktab darsi shaklida zinhor – bazinhor ishlab bo‘lmaydi. Bolalar bog‘chada ta’lim olishlari uchun ta’lim jarayoni ularning tabiiy rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Psixolog mashg‘ulotidan maqsad bilim va ko‘nikma bilan qurollantirish emas, rivojlantirish ekanini unutmasligi kerak. Psixolog rivojlantiruvchi ishlarning mohiyati shundaki, ular yordamida bolaning turli tuman bilish jarayonlari va shaxsiy xususiyatlari rivojlanishiga ijobiy turtki beriladi, ular takimillashtiriladi. Psixolog ishining natijalari darhol namoyon bo‘lmaydi. Shu tufayli ko‘pincha tarbiyachi va ota-onalarning hafsalasi pir bo‘lib ketadi. Shuning uchun ota – ona va bog‘cha tarbiyachisi ongiga shuni yetkazish kerakki, psixologning ishi o‘qitish emas, balki rivojlantirish. Rivojlanish esa asta-sekin yuz beradi. Shu sababli bolaning rivojlanish jarayoni sezilmay o‘tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan rivojlantiruvchi ishlarning asosiy shakli o‘yindir, chunki o‘yin ushbu davrdagi yetakchi faoliyat sifatida bolaning psixik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ayni vaqtda bola o‘yin davomida yangi bilimlarni egallab boradi. [1] Maktabgacha yosh davrida bolaning yetakchi faoliyati bu o‘yinlar hisoblanadi.

1. Predmetli o‘yinlar (15-20 minut)
2. Sujetli-rolli o‘yinlar (30-60 minut)
3. Qoidali o‘yinlar (1 soatdan – 2 kungacha davom etishi mumkin)

Psixolog, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan shug‘ullanar ekan, ularning rivojlanishi istiqbolini ularda maktab ta’limiga to‘laqonli psixologik tayyorgarlikda ko‘radi. Uning bosh vazifasi rivojlanishining to‘laqonli va ko‘p qirraliligi nuqtai nazaridan, bola o‘zining maktabgacha bolaligini mahsuldor o‘tkazishi uchun tobora maqbul pedagogik – psixologik sharoitlarni yaratish. Psixolog go‘yo bolaning kelajagiga qarab, uning bir yosh davridan boshqasiga – maktab yoshiga qanchalik omadli qadam qo‘yilishini aniqlaydi, bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishi uyga maktabda qo‘yiladigan yangi talablarga muvofiq bo‘lishi uchun yana nimalar qilish kerakligini belgilaydi.

Korreksion ish zarurati yosh va individual imkoniyatlari o‘z vaqtida realizasiyalanmasa, yoshga oid yangi tuzilmalar va yorqin individual xususiyatlar ontogenezning u yoki bu bosqichida

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bo‘lgan bolarning barchasida shakllantirilmasagina yuzaga keladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarga turli xil metodlar yoki o‘yinlar orqali ma’lumot berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: “Barmoq” o‘yini, uning qoidalari quyidagilar:

1. O‘ng qo‘lining barmog‘ini stolning uchida katta odam predmetni aytmagunicha ushlab. Barmoqni vaqtdan avval olmaslik kerak.

2. Sovg‘a tarzidagi rasmni kim birinchi kim birinchi barmog‘ini bilan shu rasmni ko‘rsatgan bo‘lsa o‘sha oladi.

3. Yutgan bolani o‘yinning barcha ishtirokchilari aytishadi.

Va yana “O‘yinchoqlar bilan berkinmashoq”, “Esnamasdan, javob ber!” kabilar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yosh davridagi bolalarga turli xildagi metodlar yoki o‘yinlar orqali ma’lumotlarni yetkazib berishimiz. Bolaning tasavvurini, iqtidorini, ongini, dunyoqarashini, xotirasini yanada rivojlantirishimiz zarur. Hayolida maktabga bo‘lgan hislari faqatgina ijobiy bo‘lishi lozim. Bunda ota-onalar va bog‘cha tarbiyachilarining hissasi katta bo‘ladi albatta. Chunki bu davrda bola ko‘proq vaqtini shu insonlar bilan o‘tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.X.Asranbayeva, D.D.Oribboyeva, D.D. Boymirzayeva. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. “Tafakkur avlodi” 2023

2. Nishanova Z.T., Dismuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T.: Fan va texnologiyalar nashri- yotining bosmaxonasi. 2013.

3. arxiv.uz